

## ZAMONAVIY ITALYAN TILIDA NEOLOGIZMLAR VA ULARNING O'ZBEKCHA MUQOBILLARI

**Sobirjonova Sevinch Olimjon qizi**

O'zDJTU "Tarjima nazariyasi va amaliyoti italyan tili" fakulteti talabasi  
[sevinch26042008@gmail.com](mailto:sevinch26042008@gmail.com)

**Nosirova Mubina Olimovna**

O'zDJTU Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi  
[m.nosirova@uzswlu.uz](mailto:m.nosirova@uzswlu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy italyan tilida so'nggi yillarda paydo bo'lgan neologizmlarning lisoniy tabiati va ularning o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, axborot texnologiyalari va globalashuv jarayonida italyan lug'at tarkibiga kirib kelgan yangi birliklar tahlilga tortildi. Maqolada neologizmlarning hosil bo'lish usullari (anglitsizmlar, gibrid so'zlar, semantik derivatsiya) yoritib berilgan hamda ularni o'zbek tilida ifodalashda transliteratsiya, kalkalash va tavsifiy tarjima usullarining samaradorligi qiyoslangan.

**Kalit so'zlar:** neologizm, italyan tili, o'zbek tili, tarjima metodikasi, leksikologiya, anglitsizmlar, lingvistik ekvivalentlik.

**Abstract.** This article examines the linguistic nature of neologisms that have emerged in the modern Italian language in recent years, as well as the challenges of translating them into Uzbek. During the research, new lexical units that entered the Italian vocabulary in the context of socio-political changes, information technologies, and globalization were analyzed. The article highlights the main word-formation processes of neologisms (anglicisms, hybrid words, and semantic derivation) and compares the effectiveness of translation strategies such as transliteration, calque, and descriptive translation in rendering them into Uzbek.

**Keywords:** neologism, italian language, uzbek language, translation methodology, lexicology, Anglicisms, linguistic equivalence.

Til xalqning ma'naviy boyligi va milliy o'zligini namoyon etadigan muhim vositadir. U jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, fan va texnika taraqqiyoti bilan birga chambarchas holda rivojlanib boradi. Til tizimi doimiy ravishda harakatda bo'lib, o'zgarib turadi, unda yangi so'zlar yangi ma'nolar, shuningdek, yangi ifoda vositalari paydo bo'lib boradi.

Tilshunoslikda bu jarayon "*neologizm*" tushunchasi bilan yuritiladi. Yunoncha "neos" - yangi, "logos" - so'z degan ma'noni anglatadi. Bundan ko'rinadiki, jamiyat taraqqiyoti va hayotiy ehtiyojlar tufayli yuzaga kelgan yangi narsa, hodisa va tushunchalarni ifodalash uchun ma'lum bir tilda paydo bo'ladigan so'zlar neologizmlar deb ataladi.

Xususan, Yevropaning eng boy madaniy merosiga ega bo'lgan italyan tili ham bundan mustasno emas. Zamonaviy italyan tili leksikasi bugungi kunda madaniyatlararo muloqot ta'sirida keskin sur'atlar bilan yangilanmoqda. Biroq bu yangi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni faqatgina lug'aviy ekvivalent topish bilangina cheklanib qolmay, ikki til va madaniyat o'rtasidagi farqlarni ham nazardan chetda qoldirmagan holda ma'noni to'g'ri yetkaza olishni ham talab etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi

zamonaviy italyan tilidagi neologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan tarjima muammolariga ilmiy yechimlar taklif qilish, hamda ularning lisoniy xususiyatlarini aniqlab, tahlil qilishdan iborat.

Italyan tili leksikasining boyishi hamda yangi so'zlarning hosil bo'lishi bir necha yo'nalishda kechmoqda. Biz ularning kelib chiqishi va shakllanish xususiyatiga ko'ra, anglitsizmlar, gibrid neologizmlar hamda semantik neologizmlarga ajratishimiz mumkin.

Ko'pincha, yangi texnologiyalar, internet, biznes, sport va madaniyat sohasidagi atamalar uchun ma'lum bir tilda muqobil ekvivalent so'z topish qiyin bo'lgani uchun yoki xalqaro standart sifatida inglizcha variantlar o'zlashishi natijasida *anglitsizmlar* paydo bo'ladi. Global axborot almashinuvi natijasida italyan tilida ushbu so'zlarga ehtiyoj yuqori. Masalan, *marketing, e-mail, weekend, computer, meeting, feedback, fashion, shopping* kabi so'zlar italyan tili uchun ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri o'tgan so'zlar, ya'ni, anglitsizmlar hisoblanadi. Inglizcha so'zlar italyan tiliga kirganda, asosan, ko'plik shaklini olmaydi. Masalan, ingliz tilida "one weekend, two weekends" bo'lsa, italyanchada "*un weekend, due weekend*" shaklida ishlatiladi.

Italyan tili neologizmlari orasida *gibrid so'zlar* (italyancha ibridismi) ham alohida qiziqish uyg'otadi. Anglitsizmlar tilda tayyor holda o'zlashtirilsa, ya'ni ma'lum bir tilga "mehmon" bo'lib kirsam, gibridlar tilning ichki imkoniyatlari hisobiga yangi so'z yasash jarayonidir. Bu jarayonda ingliz tilidan olingan o'zakka italyan tiliga xos bo'lgan ot yoki fe'l yasovchi qo'shimchalardan biri qo'shiladi. Bu esa tildagi morfologik moslashuvning eng yorqin namunasi hisoblanadi. Italyan tili o'zining boy morfologik tizimi (fe'l tuslanishi, sifatoshlar va hkz.) tufayli inglizcha so'zlarni "italyanchalashtirish" ga juda moyil. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar natijasida paydo bo'lgan fe'llar bunga misol bo'la oladi. Masalan, inglizcha "to tag" fe'lini olaylik. Bu so'z italyan tilida o'zlashganda "taggare" shaklini oldi, qolaversa, bu so'z nafaqat o'zak sifatida, balki to'liq konyugatsiya (tuslanish) imkoniyatiga ega: io taggo, tu tagghi, noi tagghiam.

Shuningdek, *shoppare* (xarid qilmoq), *chattare* (yozishmoq), *streammare* (jonli efir uzatmoq) singari so'zlar italyan yoshlari nutqida ham keng foydalaniladi. Bu esa tilning doimiy ravishda o'zgarib borishini, qolaversa, yangi sharoitlarga moslashishini ko'rsatadi. Bu borada taniqli tilshunos *Klaudio Marazzini* ta'kidlaganidek: "Til muzey emas, balki muloqot va almashinuvlar bilan oziqlanadigan tirik organizmdir. Muammo neologizmlardan foydalanishda emas, balki tilning asl tuzilishini qashshoqlashtiradigan tanqidsiz, haddan tashqari ko'p qo'llashdadir".<sup>12</sup> Bunday gibrid so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ham biz ko'pincha o'xshash mexanizmdan foydalanamiz, ya'ni inglizcha o'zakka o'zbekcha *-lamoq* qo'shimchasini qo'shish orqali tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldiramiz: *bloklamoq, xostinglamoq*.

Neologizmlarning yana bir qiziqarli turi - *semantik neologizmlar* hisoblanadi. Bunda tilga yangi so'z kirib kelmaydi, balki mavjud so'zlar yangi tushunchani ifodalash uchun xizmat qila boshlaydi. Italyan tili misolida "*virale*" so'zini tahlil qilsak, bu so'z ilgari faqat tibbiyotga oid termin sifatida qo'llanilgan bo'lsa, raqamli texnologiyalar asrida bu so'z ijtimoiy tarmoqlarda "*yashin tezligida tarqaluvchi axborot*" ma'nosini yuklab oldi.

<sup>12</sup> Marazzini, C. L'italiano è un bene comune. Milano: Il Mulino, 2018. – P. 45.

Shuningdek, “*navigare*” (kemada suzmoq) fe’li bugungi kunda “*internetdan foydalanish*” ma’nosida ham ishlatiladi. O‘zbek tilida ham bu kabi jarayonlar kuzatilmoqda: masalan, bizdagi “devor” so‘zi endilikda nafaqat binoning qismi, balki Facebook yoki Instagramdagi shaxsiy sahifaning asosiy qismini anglatishi semantik neologizmga yaqqol misoldir. Bu kabi o‘zgarishlar tilni boyitish bilan birga, tarjimondan so‘zning kontekstiga qarab qaysi ma’noda ishlatilganligini aniq va to‘g‘ri tushunishni talab etadi. Ushbu ma’no ko‘chishlari va yangi leksik qatlamlar zamonaviy leksikografiyada, xususan, Treccani lug‘atlarida doimiy ravishda qayd etib borilmoqda.

13

Italyan tilidagi yangi leksik birliklarni o‘zbek tiliga o‘girishda tarjimon odatda uchta asosiy strategiyaga tayanadi. Har bir usul so‘zning tildagi o‘rni va kontekstiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Birinchi usul, tarjima sohasida asosan *transliteratsiya* va *transkripsiya* atamaları bilan yuritiladi. Bu tarjima usuli xalqaro miqyosda keng foydalaniladigan texnologik atamalar hamda anglitsizmlarni o‘zlashtirishda ishlatiladi. Bunda italyan tilidagi so‘zlar fonetik jihatdan o‘zbek tiliga moslashtirilib, talaffuzga yaqin shaklda taqdim etiladi. Masalan, *influencer*, *startup*, *smartworking* kabi birliklar o‘zbek tilida *influenser*, *startap* va *smartvorking* ko‘rinishida qo‘llaniladi. Bu jarayonda so‘zlarning shakli o‘zbek tili fonetik tizimiga moslashtiriladi. Biroq ushbu usulning salbiy jihati ham yo‘q emas, u til tarkibida chet so‘zlar miqdorining keskin ortishiga hamda leksik tizim haddan tashqari xorijiy elementlar bilan boyib ketishiga olib kelishi mumkin.

*Kalkalash* (nusxa ko‘chirish) usuli tarjimada ma’lum bir ibora yoki so‘zning asl ma’nosini saqlagan holda uni o‘zbek tilining leksik birliklari yordamida qayta yaratish hisoblanadi. Bu usul ko‘pincha ilmiy hamda akademik matnlarda keng qo‘llanilib, terminlarning mazmunini aniq va to‘g‘ri, tushunarli tarzda yetkazish uchun xizmat qiladi. Italyan tilidagi “*cervelli in fuga*” iborasini olaylik, bu ibora so‘zma-so‘z tarjimada “*qochayotgan miyalar*” ma’nosini ifodalaydi. Biroq o‘zbek tilida biz usbu iborani “*aqllar oqimi*” yoki “*intellektual migratsiya*” shaklida tarjima qilamiz. Bundan tashqari, “*effetto serra*” birligi o‘zbek tilida “*issiqxona effekti*” shaklida ifodalanadi. Xulosa qilib aytganda, bu usul orqali tilning semantik tuzilishi saqlangan holda, yangi terminlar o‘zbek tiliga tabiiy ravishda o‘giriladi.

Agar italyan tilidagi ma’lum bir tushuncha o‘zbek madaniyatida to‘liq va aniq ekvivalentga ega bo‘lmasa, tarjimon bu tushunchani so‘zma- so‘z tarjima qilish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Mazkur holatda tarjima ma’noni tushuntirish orqali, ya’ni *deskriptiv* (*tavsifiy*) *usulda* amalga oshiriladi. Bu usulda tarjimon so‘zni emas, balki uning mazmuni hamda vazifasini izohlab beradi. Misol tariqasida, italyan tilidagi “*apericena*” tushunchasini olaylik. Ushbu italyan madaniyatiga xos bo‘lgan tushuncha “*aperitiv*” va “*kechki ovqat*” elementlarini biriktiradi, biroq o‘zbek tilida bunday yagona so‘z mavjud emas. Shuning uchun ushbu tushuncha “*kechki ovqat o‘rnini bosuvchi kengaytirilgan tamaddi*” tarzida izohlanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, italyan tilidagi neologizmlar, ayniqsa gibrid so‘zlar, o‘zbek tiliga kirib kelish jarayonida o‘xshash morfologik moslashuvni boshdan o‘tkazmoqda. Masalan, italyan tilidagi inglizchakka o‘zakka -are suffiksini qo‘shish natijasida yuzaga kelgan fe’llar (*taggare*, *linkare*) o‘zbek tilida ham inglizcha

<sup>13</sup> Treccani. Il Vocabolario Treccani: Dizionario della lingua italiana. Roma: Istituto della Enciclopedia Italiana, 2024.

o'zakka -lamoq suffiksini qo'shish orqali (taglamoq, linklamoq) ifodalanadi. Bu holat esa har ikkala tilning ham chet so'zlarni qabul qilishda va moslashtirish jarayonida o'xshash "morfologik immunitet" ga ega ekanligidan dalolat beradi.

*Accademia della Crusca* mutaxassislarining ta'kidlashicha, "l'italiano di oggi", ya'ni bugungi kundagi italyan tili o'zining an'anaviy qobig'idan chiqib, ko'proq amaliy va pragmatik xususiyatga ega bo'lmoqda. Akademiyaning qayd etishicha: "Ko'plab chet so'zlar italyan tiliga mos keluvchi so'zlar yo'q ekanligi uchun emas, balki ingliz tilining texnologiya va moliya sohalaridagi nufuzi tufayli kirib kelmoqda".<sup>14</sup> Masalan, *smartworking* kabi anglitsizmlarning keng qo'llanilishi ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlar bilan izohlanadi. Shunga o'xshash holat o'zbek tilida ham kuzatiladi: "masofaviy ish" iborasi mavjud bo'lsa-da, mutaxassislar nutqida "onlayn" yoki "remote" kabi terminlar hozirgi davrda anchagina faol ishlatilmoqda.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida aniqlanishicha, neologizmlarni o'zbek tiliga o'girishda bir nechta asosiy usullar samarali deb topildi. Jumladan, kalkalash usuli ijtimoiy-siyosiy hamda ilmiy atamalarni tarjima qilishda keng qo'llaniladi. Deskriptiv (tavsifiy) tarjima esa madaniy xususiyatga ega bo'lgan neologizmlarni ifodalashda foydalaniladi. Transliteratsiya usuli esa asosan global axborot texnologiyalari terminlarini o'zlashtirishda qo'llaniladi.

O'tkazilgan tahlillar hamda ilmiy manbalarga tayangan holda ushbu umumiy xulosaga kelishimiz mumkin. Avvalo, italyan tili neologizmlari jamiyat va texnologiyalardagi o'zgarishlarning bevosita ifodasi hisoblanadi. Ularning asosiy qismi ingliz tili ta'sirida yuzaga kelsa-da, italyan tilining ichki grammatik qoidalari asosida moslashib, gibridlashuv jarayonini boshdan kechirmoqda.

Shuningdek, neologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida faqatgina transliteratsiya usuli yetarli emas, balki tilning leksik hamda semantik xususiyatlariga mos keladigan kalkalash hamda tavsifiy tarjima usullaridan foydalanish ham axborotni to'g'ri va aniq yetkaza olishda alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda zamonaviy italyancha-o'zbekcha neologizmlar lug'atining mavjud bo'lmaganligi tarjima jarayonida turli xil yondashuvlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Kelajakda yangi texnologik va ijtimoiy so'zlarni tizimlashtirish filologiya fanining muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Marazzini, C. (2018). *L'italiano è un bene comune*. Milano: Il Mulino.
2. *Accademia della Crusca*. Osservatorio della Lingua Italiana: Neologismi.
3. Treccani. (2024). *Il Vocabolario Treccani: Dizionario della lingua italiana*. Roma: Istituto della Enciclopedia Italiana.
4. Tursunov, U., Muxtorov, J., Rahmatullayev, Sh. (1992). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*.
5. Treccani. *Dizionario dei Neologismi: Parole nuove dal 2008 ad oggi*. (Elektron resurs).

<sup>14</sup> Accademia della Crusca. Osservatorio della Lingua Italiana: Neologismi. [www.accademiadellacrusca.it](http://www.accademiadellacrusca.it)